

faoliyat nafaqat aholining sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi, balki tomorqa xo'jaliklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

RAQAMLI MOLIYA ASRIDA AHOLING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH – IQTISODIY BARQARORLIK OMILI SIFATIDA

Mamadiyeva Dildora Qurbonali qizi

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika institute talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish sharoitida aholining moliyaviy inklyuzivligini ta'minlash va moliyaviy savodxonligini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, raqamli moliya tizimining rivojlanishi hamda mavjud muammolar ko'rib chiqildi. Tadqiqot yakunida aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan takliflar berildi.

Kalit so'zlar: Raqamli moliya, moliyaviy savodxonlik, moliyaviy madaniyat, iqtisodiy xavfsizlik, investitsiya.

Bugungi kunda mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda asosiy harakatlantiruvchi kuch texnologiyalar yoki moliya institutlari emas, balki bevosita moliya bozorining ishtirokchisi bo'lgan aholining bilim darajasi, ya'ni moliyaviy savodxonligidir. Har qanday iqtisodiy islohotning samaradorligi aholining ushbu jarayonlarni qanchalik to'g'ri tushunishi va o'z mablag'larini oqilona boshqara olishiga tayanadi. Shu bois, moliyaviy savodxonlikni oshirish – iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligini kafolatlovchi strategik zaruriyatdir. Moliyaviy savodxonlik deganda, shunchaki pul sanash emas, balki moliyaviy resurslarni rejalashtirish, xavf-xatarlarni baholash va kelajak uchun jamg'arma qilish ko'nikmalari tushuniladi. Hozirgi kunda bu borada quyidagi fundamental masalalar yuzaga kelmoqda:

Iqtisodiy immunitetning pastligi: Moliyaviy bilimlari yetarli bo'lmagan aholi kutilmagan iqtisodiy tebranishlar yoki inqirozlarga juda zaif bo'ladi. O'z daromad va xarajatlarini to'g'ri taqsimlay olmaslik natijasida aholi orasida ortiqcha qarzdorlik yukining ortishi kuzatiladi. Bu esa nafaqat shaxsiy farovonlikka, balki butun bank-moliya tizimining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Investitsion faollikning yetishmasligi: Moliyaviy savodxonlik darajasi past bo'lgan sharoitda aholi o'z bo'sh pul mablag'larini iqtisodiyotga investitsiya sifatida kiritishdan ko'ra, ularni nafaol (naqd pul ko'rinishida) saqlashni afzal ko'radi. Bu esa iqtisodiyotda "aylanayotgan" pul massasining kamayishiga va moliya bozorida ichki investitsiya resurslarining yetishmovchiligiga olib keladi. Shu sababli, aholining moliyaviy madaniyatini yuksaltirish – moliya bozoridagi firibgarliklarga qarshi eng kuchli qalqon va mamlakat kapitalining samarali aylanishini ta'minlovchi asosiy omildir. Faqatgina ongli moliyaviy qarorlar qabul qiluvchi jamiyatgina barqaror iqtisodiy o'sishni kafolatlashi mumkin.

"Moliyaviy qarorlar – bu shaxsning kundalik ehtiyojlari va strategik maqsadlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan amaliy tanlovlar yig'indisidir. Aynan ushbu qarorlar orqali subyektlar sarmoya kiritish, kredit yukini optimallashtirish, jamg'arish yoki oqilona iste'mol qilish borasida o'z iqtisodiy manfaatlarini tizimli ravishda amalga oshiradilar. Moliyaviy savodxonlikning fundamental ahamiyatini

xalqaro akademik doiralarda ham e'tirof etilgan. Xususan, taniqli tadqiqotchilar Annamaria Lusardi va Olivia Mitchell o'zlarining "Financial Literacy and Economic Outcomes: Evidence and Policy Implications" nomli maqolasida "Moliyaviy savodxonlik shaxslarning jamg'arma qilish, investitsiya qilish va qarz majburiyatlarini boshqarish kabi moliyaviy qarorlarini samarali qabul qilishida muhim omil hisoblanadi."¹⁴⁷ deb tarif bergan. Mualliflarning fikridan xulosa qilsak insonlarning moliyaviy savodxonligini oshirish orqali ularni to'g'ri moliyaviy qarorlar qilishini ta'minlash mumkin.

Dunyo bo'ylab insonlarning moliyaviy savodxonlik darajasini aniqlash maqsadida OECD tashkiloti tomonidan 2023-yil o'tkazilgan xalqaro tadqiqoti natijalariga ko'ra, 39 ta mamlakatda o'tkazilgan so'rovda aholining umumiy moliyaviy savodxonlik darajasi o'rtacha 60 ballni (100 ballik tizimda) tashkil etgan. Minimal zarur daraja (70 ball va undan yuqori)ga esa respondentlarning atigi 34 foizi erishgan. Bu esa aholining katta qismi murakkab moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun yetarli bilim va ko'nikmaga ega emasligini ko'rsatadi. Tadqiqotda respondentlarning 84 foizi inflyatsiya tushunchasini bilishi aniqlangan bo'lsa-da, murakkab foiz mexanizmini to'g'ri tushunadiganlar ulushi 42 foizni tashkil etgan. Raqamli moliyaviy savodxonlik ko'rsatkichi esa yanada past bo'lib, o'rtacha 53 ballni tashkil etgan va faqat 29 foiz respondent minimal darajaga erishgan. Xususan, aholining yarmi jamoat Wi-Fi orqali moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish xavfini to'liq anglamaydi. Shuningdek, moliyaviy savodxonlik va moliyaviy farovonlik o'rtasida bevosita bog'liqlik aniqlangan. Moliyaviy savodxonligi yuqori bo'lgan shaxslar moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari bo'yicha yuqoriroq natija qayd etgan. Mazkur natijalar raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy savodxonlikni oshirish strategik ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.¹⁴⁸

Oxirgi bir necha yil ichida O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish sharoitida aholining moliyaviy inklyuzivligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu boradagi fundamental qadam sifatida 2020-yilda Markaziy bank tomonidan qabul qilingan "Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish milliy strategiyasi" xizmat qilmoqda.

1. Islohotlarning amaliy natijalari va innovatsion yondashuvlar. Strategiya doirasida moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish va ularning qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi: Ta'limiy transformatsiya: Umumta'lim maktablari va oliy o'quv yurtlari o'quv dasturlariga moliyaviy savodxonlik elementlari integratsiya qilindi, maxsus o'quv-metodik majmualar yaratildi. Raqamli vositalar: "Finlit.uz" kabi ixtisoslashtirilgan interaktiv portallar va mobil ilovalar ishga tushirildi. Bu platformalar yoshlar va talabalar orasida zamonaviy bank mahsulotlari, jamg'arma madaniyati va investitsiya asoslari bo'yicha bilimlar transferini tezlashtirdi.

2. Sohadagi tizimli to'siqlar va nomutanosibliklar. Erishilgan yutuqlarga qaramay, sohada bir qator ekzogen va endogen muammolar saqlanib qolmoqda, bular ilmiy-amaliy nuqtayi nazardan quyidagilardir: Raqamli tafovut: Chekka va qishloq hududlarida axborot-kommunikatsiya infratuzilmasining yetarli emasligi aholining raqamli moliya vositalaridan foydalanish imkoniyatini cheklamoqda. Ijtimoiy segmentatsiya: Xotin-qizlar va imkoniyati cheklangan shaxslar o'rtasida moliyaviy

¹⁴⁷ <https://pensionresearchcouncil.wharton.upenn.edu/wp-content/uploads/2015/08/WP2015-01.pdf>

¹⁴⁸ https://www.oecd.org/en/publications/oecd-infe-2023-international-survey-of-adult-financial-literacy_56003a32-en.html

integratsiya darajasining pastligi ijtimoiy-iqtisodiy faollikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Metodik bo'shliq: Nazariy bilimlarni real iqtisodiy jarayonlar bilan bog'lovchi, xususan, shaxsiy byudjetni rejalashtirish va risklarni boshqarish bo'yicha amaliy treninglarning yetishmasligi sezilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli moliya asrida aholining moliyaviy savodxonligini oshirish shunchaki ta'limiy jarayon emas, balki milliy iqtisodiy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlovchi strategik instrumentdir. Raqamli texnologiyalarning moliya sektoriga shiddat bilan kirib kelishi aholidan nafaqat an'anaviy iqtisodiy bilimlarni, balki yuqori darajadagi raqamli madaniyatni ham talab etmoqda. Xulosa qilib aytganda, moliyaviy jihatdan savodli jamiyat – iqtisodiy inqirozlarga chidamli, firibgarlik tuzoqlaridan himoyalangan va mamlakatning investitsion jozibadorligini ichki resurslar hisobiga oshirishga qodir bo'lgan qudratli kuchdir. Hamda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadida quyidagi takliflarni bera olishimiz mumkin:

- ✓ maktab va Oliy ta'lim tizimida moliyaviy savodxonlikka oid fanlarni joriy etish,
- ✓ davlat tashkilotlari tomonidan aholi o'rtasida turli smenalar o'tkazish,
- ✓ OAV orqali moliyaviy xavfsizlik haqida dasturlar qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Ўзбекистон Республикаси Марказий банки (2021). Аҳолининг молиявий саводхонлик даражаси тўғрисида ҳисобот*
2. *О'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PQ-4712-son Qarori 2020–2025-yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida.*
3. *OECD (2023). OECD/INFE International Survey of Adult Financial Literacy. Paris: OECD Publishing. (Moliyaviy savodxonlik bo'yicha xalqaro statistik ma'lumotlar manbasi)*
4. *Lusardi, A. (2019). Financial Literacy and the Need for Financial Education: Evidence and Implications. Swiss Journal of Economics and Statistics, 155(1).*
5. *World Bank (2022). Financial Consumer Protection and Financial Literacy in Digital Finance. Washington, DC: World Bank Group. (Raqamli moliya va iste'molchilarni himoya qilish masalalari)*
6. *Markaziy bank rasmiy sayti: www.cbu.uz (Milliy statistika va moliyaviy savodxonlik dasturlari bo'yicha ma'lumotlar)*

ЎЗБЕКИСТОН АГРОСАНОАТИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИДА МОЛИЯВИЙ САВОДХОНЛИК ВА ФИСКАЛ СИЁСАТНИНГ МИНТАҚАВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Рахмонова Сарвиноз Фахриддин қизи

ТДИУ ҳузуридаги “Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг илмий асослари ва муаммолари” илмий тадқиқот маркази докторанти

Ўзбекистонда агросаноат мажмуаси (АСМ) рақобатбардошлигини ошириш мамлакатнинг озиқ-овқат хавфсизлиги, экспорт салоҳияти ва ҳудудий иқтисодий барқарорликни таъминлашда стратегик аҳамият касб этади.

Замонавий иқтисодий шароитда агросаноат рақобатбардошлиги фақат табиий ресурслар, ишлаб чиқариш қувватлари ёки давлат қўллаб-қувватлаш чоралари билан эмас, балки институционал муҳит ва инсон капитали сифатининг интеграцияси орқали шаклланади.